



## XX ASR O'ZBEK RAQS SAN'ATINING RIVOJLANISH TARIXI

Sa'dullayeva Shahrabo

Andijon davlat universiteti

2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10004208>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 04-October 2023 yil

Ma'qullandi: 08- October 2023 yil

Nashr qilindi: 14- October 2023 yil

### KEY WORDS

*xalq,raqqosa, raqs,professional, baletmeyster,lazgi,san'at, xareografiya.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada o'zbek raqs san'atining XX asrdagi tarixi , buyuk nomoyondalari ,o'zbek milliy raqs san'atining o'ziga xos jihatlari yoritilgan.Shuningdek , maqolada o'zbek milliy professional raqs san'ati rivojiga ulkan hissa qo'shgan nomoyondalar haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

O'zbek xalq raqs san'ati uzoq tarixiy taraqqiyot yo'lni bosib o'tdi . Ijodkor xalqimiz tomonidan yillar davomida yaratilgan raqslar milliy raqs san'atining noyob durdonlari sanalib kelinmoqda.

O'zbek raqs daholari yaratgan g'oyaviy –badiiy jihatdan yuksak mumtoz raqslar xalqimizni asrlar davomida insonparvarlik ,ona Vatanga muhabbat ,jasorat , fidokorlik ,kurashchanlik ,go'zal xulq ruhida tarbiyalashga yaqindan yordam berib kelmoqda.Kelajak avlodni voyaga yetkazish , xalq orasida haqiqiy insoniylik munosabatlarni shakllantirishda o'zbek xalqining merosi bo'lgan bugungi kunda muhim estetik tarbiya vositasi sifatida xizmat qilmoqda. Tarixda raqslar necha ming yillar ichida davrdan-davrga o'tib , davom etib kelgan. U garchi xalq ijodiyoti bo'lsa ham, davr va tarixning shakli tufayli feodallik ta'siridan holi bo'lmagan. Shuning uchun tabiiy holda bir qancha raqslarga diniy mazmun aralashib , sofligini yo'qotgan yoki yo'qolib ketishiga sabab bo'lgan. Jahon xalqlari raqs san'atiga murojaat qiladigan bo'lsak, dunyodagi necha minglab millat va elatlarning raqs san'ati turlari mavjudligini ko'rishimiz mumkin. “ Buyuk oktabr inqilobi” davrigacha xalq raqs san'atiga e'tibor berilmagan.O'sha davrlarning boshqaruvchilari tomonidan oddiy xalqning ijro etgan qo'shiq va raqslari qattiq ta'qib qilingan. Lekin xalqning qo'shiq kuylashga va raqs tushishga bo'lgan ehtiyojlari ularni yo'q bo'lib ketishiga yo'l qo'ymagan . Xususan , Rossiyada xoreografiya maktablari va teatrlarida xalq raqslaridan yiroq bo'lgan aristokratlar, burjuaziyaning yirik , yuqori tabaqali tomoshabinlari uchun raqslar sahnalashtirilgan va ijro etilgan. Bundan tashqari ,o'sha davralarda ham faoliyat yuritib kelgan xalq ijodiyoti uylari va markazlari ham o'z respublikalarining eng chekka o'lkalari va qishloqlarida, tog'li hududlarda ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar. Ular maxsus ekspeditsiyalar tashkil etib xalq ijodi namunalarini olib yig'dilar va professional san'atni boyitdilar. Xuddi shu tashkilotlar tomonidan professional xoreograflarning yordami bilan havaskorlik raqs san'atini o'sishiga va rivojlanishiga yordam berdilar. [1]

Raqs – san'at turi bo'lib ,unda musiqaga mos ritmik tana harakatlarida nomoyon bo'ladi.

Raqs bu- bosh harakatlari , gavda holatlari, qo'l va oyoq harakatlarini ongli ravishda boshqara olishdir. Bosh harakatlariga kiruvchi yoniga burulish, to'g'ri tutish , oldinga va orqaga sal egilishi gavdaning rasmiy va turli holatlarda , qo'lning asosiy harakatlari va ularning turlari, oyoq holatlari va ularning boshqa omillari bilan chambarchas bog'langan. Raqsni o'rganishning asosiy qonuniyatlari va talablari bilim olish va muntazam mashqlardir. Raqsning akademik va havaskorlik yo'llari mavjud . Ularni bir-biridan farqli tomonlarini anglash akademik va estrada xonandasi uchun o'ta muhimdir. Ya'ni ular plastik mashqlar , milliy, klassik va zamonaviy raqslarni o'zlashtiradi. Raqs turli madaniyatlarda mavjud va hissiyotlar , ijtimoiy aloqalarni bildirish shakli sifatida yoki ko'ngilxushlik uchun ijro etiladi. Raqs ommaviy, ijtimoiy , ijroi (sahnada) , musobaqa (badiiy gimnastika) kabi turlarga ajratiladi. Har bir xalqning raqs an'analari , ijro uslubi , plastik tasviriy vositalari bo'lib , ular tarixiy, ijtimoiy va geografik sharoitlar ta'siridan tarkib topib rivojlangan. Raqs xalq marosimlari, bayramlarning tarkibiy qismidir. Ular bilan bog'liq holda marosim o'yinlari paydo bo'lgan. Ulardan so'ng esa asta sekinlik bilan xalq raqsi paydo bo'ldi va unda xalq turmushining ayrim tomonlari aks ettirila boshlangan. Xalq raqsida ovchilik , chorvachilik, dehqonchilik va hunarmandchilik bilan bog'liq mavzular , shuningdek xalqning bosqinchilarga qarshi kurashi tasvirlangan. Markaziy Osiyo , jumladan O'zbekiston hududida topilgan qoya tosh tasvirlari arxeologik topilmalar bu yerda raqs juda qadimiylikidan guvohlik beradi. O'zbek raqs san'atining qadimiyliigi , shakl va turlarining boyligi ajdodlarimiz asosan dehqonchilik va hunarmandchilik bilan bog'liq bo'lganidan kelib chiqqan. O'zbekistonning Samarqand, Buxoro, Shahrisabz, va Toshkent kabi shaharlaridan raqs ustalari Buyuk ipak yo'llari bo'ylab Rim, Misr, o'lkalarigacha Sharqda Xitoy, Koreya, va hatto Yaponiyagacha borib , o'z san'atlarni namoyish etib kelgan. O'zbekiston hududida raqsning " Katta o'yin " , " Lazgi" , Kema o'yin" , " Ashshadaroz" , " Munojot" , " Tanovor" singari turlari mavjud bo'lgan.[2]

20-asrda raqs san'ati Buxoro raqsi, Xorazm raqsi, Farg'ona raqsi kabi yo'nalishlarda , zamonaviy sahna talablari asosida qayta ishlangan sahnaviy xalq raqsi sifatida , milliy raqs unsurlaridan foydalangan balet spektakllari tarzida rivojlanib keldi. Mazkur yo'nalishlarning har biri asrlar davomida bir necha tarixiy bosqichni bosib o'tib , o'z shakl va mazmuniga ega bo'ldi. Bir qator davlat va raqs jamoalari jahonga tanildi. Bunda Tamaraxonim, Mukarrama Turg'unboyeva, Gavhar Rahimova , Ma'mura Ergasheva, Malika Ahmedova , Karim Rahimov kabi raqs ustalarining xizmatlari kata bo'lgan. XIX asr oxiri XX asr boshlarida yashab o'tgan o'nlab taniqli raqs ustalarining nomlari mashhur. XX asr boshlaridagi raqs san'ati haqida shu davrda yashab ijod etgan birinchi raqs tadqiqotchisi I.G. Baxta Farg'ona va Toshkent qadimgi raqslari va raqs ustalari to'g'risida ma'lumot yig'gan. U XX asr boshlari va 20-yillarda Farg'ona vodiysi , Xorazm va Buxoroda faoliyat boshlagan taniqli raqqosalar bilan uchrashib , muloqatda bo'ldi. Asrlar davomida ijro etilgan an'anaviy xalq va professional raqslar plastikaning " haykaltaroshlik" turiga oid bo'lib , ulardagi qadam tashlashlar hech qanday badiiy -ifodaviy ahamiyatga ega emas edi. Raqs juftliklari orasidagi raqs muloqati tamoyillari ham ishlab chiqilmagan edi. O'zbek xalq va professional raqslari esa garchi xalq bayramlarida erkaklar tomonidan ijro etilgan bo'lsa-da, ularning har biri alohida o'ziga xos xususiyatlarni mujassamlashtirgan. [1]

O'zbek xalq san'atini yaxshi bilgan , o'z iste'dodi va zahmati bilan raqs san'atini boyitgan va dunyoga tanitgan buyuk san'atkor Tamaraxonim ham raqs san'atiga katta hissa qo'shgan nomoyondalardan biridir. 1920- yilda xalq ashulachisi Muhiddin Qoriyoqubov tashkil qilgan

ansanbilda ayollardan faqat Tamaraxonim bor edi. Ancha yosh bo'lishiga qaramay vokal, raqs, musiqa san'atidan ustozlari Muhiddin Qoriyoqubov, Usta Olim Komilov, To'xtasin Jalilov, Jo'raxon Sulstonov kabi bir qancha mohir san'atkorlardan saboq olgan. Shu yillardan boshlab Tamaraxonim musiqali drama spektaklarida drama artisti, qo'shiqchi, raqqosa, bo'lib ishtirok etib, har bir obrazda o'zining bor talanti, g'ayrati orqali san'atga butun vujudi bilan berilganini ko'rishimiz mumkin. 1924-yilda "birinch Sharq qaldirg'ochi" deb ta'rif berilgan. Tamaraxonim kopqirrali iste'dod sohibasi sifatida baletmeysterlik mahoratini ham ko'rsata oldi. Farg'ona raqs uslubidan tashqari, o'ziga xos tarixi, jozibasi bilan Tamaraxonimni o'ziga rom etgan Xorazm qo'shiq va raqs san'atini ham chuqur o'rganishga kirishdi. Natijada, 1935-yilda Londonda bo'lib o'tgan birinchi xalqaro raqsi va musiqa san'ati festevalida jahonga noma'lum bo'lgan o'zbekning o'ziga xos san'atini namoyish qilib, Usta Olim Komilov bilan oltin medalga sazovor bo'lgan. 1937-yilda Moskvada bo'lib o'tgan birinchi o'zbek san'ati dekadasida milliy raqslarni sahnalashtiruvchi baletmeyster va raqqos ekanligini yana bir bor tasdiqladi. O'zbek raqs san'atini yanada rivojlantirishda davom etdi.[4]

Dastlabki ommaviy sahna raqslarida Tamaraxonim slavyan va kavkaz xalqlari an'analariga tayanib, bir qator saf, diogonal, doira usullaridan foydalanadi, qiyofalarning ritm-plastik haykalsimon turishini chekladi, harakatlarni "muloyimlashtirdi", raqslar manzarasini "to'rtinchi devor" bo'lib turgan tomoshabinga burdi. Tamaraxonimning raqs san'ati xotin-qizlar ozodligiga chaqiriq sifatida maydonga kelgan bo'lsa 30-yillardagi Mukarrama Turg'unboyevaning raqs san'ati shu harakatning navbatdagi bosqichiga aylandi. Bu bosqich Sharq ayollarining san'atga intilishdagi dadil qadami edi. Mukarrama Turg'unboyeva raqslari xotin-qizlarning ijtimoiy hayotga faol aralashuvining o'ziga xos ramzi bo'lib ko'rindi. Mukarrama Turg'unboyeva lirik qahramon o'zbek ayolining azaliy fazlatalari hamda yukak iroda bilan yengilikka, erkinlikka, ozodlikka, intilishining ramzidir. Uning lirik raqslari kishilarga ko'tarinki kayfiyat bag'ishlaydi.

Tabiiyki, raqqosalarning qomati baletmeysterlik qoidalari talabiga emas, balki ularning ichki ruhiyatiga ko'ra ham adllashib boraveradi. 30-yillardagi libos keyinchalik o'zbek ayollarining an'anaviy libosiga aylanadi. Chunki Tamaraxonim sahna uchun o'zbek ayollarining bayramona libosini moslagan va bu libos bilan raqqosalar 1925-yili yozda Parijdagi I jahon bezak san'ati ko'rgazmasida ishtirok etishgan edi. 30-yillarda raqs libosi ko'ylak, nimcha, torroq lozimdan iborat bo'lgan edi. Ko'ylak to'g'ri bichimli, ochiq yoqali, o'rtacha uzunlikda edi liboslar xonatlas, yorqin rangli krep, shifon kabi matolardan tikilgan. Ko'ylak ustidan baxmal, parcha yoki gilam matosidan tikilgan kalta nimcha kiyilgan. Bu liboslar majmui ayollarning bayram libosi bo'lib, u "o'zbek libosi" modasini tashkil etadi. Keyinchalik ko'ylak bel barobar qilinib, pastiga keng burmali yubka kiyila boshlandi. Shu ikki xildagi bichim o'zbek ayollari sahna libosini tashkil etagan. Birinchi o'zbek raqqosalarining chiqishlari yuz minglab kishilarni hayratga solib, tomoshabinlarni maftun etib qo'ygan. Ammo raqqosalarimiz mahalliy mutaassiblarning qarshiligiga uchradi, ular raqqosalarga nisbatan keskin choralar ham ko'rdilar.[5]

Mukarrama Turg'unboyeva pedagogik texnikumida o'qib yurgan paytlaridayoq teatrda ishlashni, raqqosalikni orzu qilib yurar edi. 1936-yilda orzusi amalga oshdi va teatr sahnasiga chiqishga muvaffaq bo'ldi. Uning san'at insonning sirli kechinmalari ifodasi sifatida tomoshabinlarni go'zallik dunyosiga oshno qildi. O'zbek musiqali teatrida ish boshlagandan to 1936-yilgacha bo'lgan davr Mukarrama Turg'unboyeva uchun o'zbek raqs me'rosini

o'rganish va raqs mahoratini egallash davri bo'ldi. Yosh raqqosa yig'inlarda xalq raqslarini qiluvchilarni ko'p kuzatdi va ularning raqslari Turg'unboyeva uchun o'ziga xos darslik bo'ldi. Mukarrama Turg'unboyevaning professional raqqosa bo'lib yetishishida taniqli san'atkor Yusufjon qiziq Shakarjonov, marg'ilonlik raqqosa Qimmatxon Sultonova va namanganlik raqs aktrisasi Sharofat Satang ustozlik qiladilar. U musiqali teatrdan Usta Olim va Tamaraxonimdan saboq oladi. Doira uullari jo'rligida Farg'ona raqs maktabining " Katta o'yin " ohang –plastik usullarini o'rgandi.

O'zbek xalq raqsining shakllanishida o'zining katta hissasini qo'shgan Asqar hoji Xaydaraliyev XX asr boshlarida faoliyat ko'rsatgan. Asqar hoji Farg'ona vodiysi shaharlarida, Toshkent va Samarqandda, 1905-yilda esa Kavkazorti mamlakatlarida o'zbek xalq raqsini yangi asosda sahnalarda ijro etib, yangi yo'nalishni boshlab berdi. Ayniqsa, xalq sahnaviy raqsini yangi asosda sahnalarda ijro etib, yangi yo'nalishni boshlab berdi. Ayniqsa, xalq sahnaviy raqs taraqqiyotida Usta Olim Komilov, Yusufjon qiziq Shakarjonov, Isaxor Oqilov, Gavhar Rahimova, Qunduz Mirkarimova, Roziya Karimova va boshqa o'nlab raqs ustalarining, " Bahor", "Shodlik", "Lazgi" kabi ansambillarining xizmati katta bo'lgan. Ulardan saboq olgan keying avlod ijodkorlari Ravshanoy Sharipova, Valentina Romonova, Halima Komilova, klara Yusupova, Ma'mura Ergasheva, Gulchehra Foziljonova, O'g'iloy Muhammedova singari raqs san'ati ustalarining har biri o'ziga xos badiiy uslublar barpo etishgan. Ming yillar davomida yig'ilgan raqs san'atining durdonalari XX asrdan boshlab raqs san'ati namunalarini sifatida o'rganila boshlandi. Baletmeyslrlar va bastakorlarning say-harakati bilan o'nlab yakka tartibda ijro etiladigan o'yinlar, duetlar, ommaviy raqslar mamalakatimiz va jahon tomoshabinlarining bir qancha avlodini maftun etib, o'zbek raqs san'ati zahirasidan joy oldi. " Tanovor", " Munojot", "Bahor", " Pilla", " Dilxiroj", " Namangan olmasi", "Andijon polkasi" va boshqalar shular jumlasidandir. Ular mumtoz raqslarga aylangan. Shu asosda raqqos va raqqosalarning bir qancha avlodi kamolga yetgan. Raqs uslublari, mahorat asoslari, harakat silsilasi avloddan-avlodga o'tib, yashab kelmoqda. [6]

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki ayni XX asrda o'zbek teatr san'atidagi o'zgarishlar raqs san'atining taraqqiyotiga ham ulkan ta'sir ko'rsatdi. Natijada qisqa vaqt ichida professional o'zbek milliy raqs san'ati paydo bo'ldi va o'zimizning raqs maktabimizga ega bo'ldik. O'zbek raqsimizning har bir maktabida o'ziga xos shakl ketma-ketlik, kuy va ohang, imo-ishoralar, harakat holatlariga ega bo'lib chet davlatlari ichida o'z o'rnimizga ega bo'ldik. Raqs barcha san'atlarning eng ulug'vori, eng go'zali deyishimiz bejiz emas. Chunki u shunchaki hayotning aksi yoki undan chalg'itish emas, raqs hayotning o'zi. Raqs insonning ruhini oshkor qiladi, uni tashvish va stressdan xolos qiladi va raqsqa tushayotganda o'zimizni kuzatib, o'zimiz haqimizda juda ko'p qiziqarli narsalarni bilib olishimiz mumkin. Raqs va tananing alohida qismlarining harakatlarini ozod qilish yordamida biz o'zimizni o'zgartirishimiz va o'zimiz xoxlagan hamma narsani rivojlantirishimiz mumkin. Biz, o'z navbatida xoreografiyaning ma'nosini raqs chiqishlarimiz bilan ifodalashga harakat qilamiz va tomoshabin buni ko'rishi va raqsda nimani o'ylayotganimizni va his qilayotganimizni tushunishi uchun harakat qilamiz. Shuning uchun raqqosalarimiz yanada ko'proq o'rganishlari va raqs san'atini yaxshilashlari uchun yangi asar yaratishga intilamiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Avdeyeva L.A. O'zbek Milliy raqs tarixidan.- Toshkent: Mukarrama Turg'unboyeva nomidagi " O'zbekraqs " milliy raqs birlashmasi, 2001y

2. Karimova R, Sayfullayeva D. O'zbek yakka ayollar raqsi, Toshkent. 2007y
3. Hamrayeva G. Raqsning milliy qiyofasi, Toshkent. 2012y
4. Sayfullayeva D, Kazakboyeva Z. O'zbek raqs san'ati tarixi va raqs sahnalashtirish sirlari. Toshkent. 2006y
5. Karimova R. O'zbek raqslari. Toshkent 2003y
6. Dosmetova R, Abryakulova N " Raqs" Toshkent: " Barkamol fayz media" 2017y

